

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Tar.20.05 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**KUDAYBERGENOV SALAMAT SHAMURATOVICH**

**OROLBO‘YI QADIMGI YO‘LLARINING TARIXI**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**NUKUS - 2023**

**Falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)**

**Kudaybergenov Salamat Shamuratovich**

Orolbo‘yi qadimgi yo‘llarining tarixi.....3

**Кудайбергенов Саламат Шамуратович**

История древних путей Приаралья.....25

**Kudaybergenov Salamat Shamuratovich**

The history of the ancient ways of the Aral Sea region.....49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....53

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Tar.20.05 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**KUDAYBERGENOV SALAMAT SHAMURATOVICH**

**OROLBO‘YI QADIMGI YO‘LLARINING TARIXI**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**NUKUS - 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PHD/Tar1226 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) hamda "Ziyonet" ([www.ziyohet.uz](http://www.ziyohet.uz)) axborot-ta'lim portalida joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Sagdullayev Anotoliy Sagdullayevich**  
akademik, tarix fanlari doktori, professor.

**Rasmiy opponentlar:**

**Sulaymanov Rustam Xamidovich**  
tarix fanlari doktori, professor.

**Saribaev Maman Ktaybekovich**  
tarix fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zR FA Qoraqalpoq'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Tar.20.05 raqamli ilmiy kengashining 2023 yil «23» VI kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, akademik Ch.Abdirov ko'chasi №1. Tel.: (99861)223-60-78; e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (140 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 230112, Nukus shahri, akademik Ch. Abdirov ko'chasi, 1-uy).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «06» VI kuni tarqatildi.  
(2023 yil «06» VI dagi 3 raqamli restr bayonnomasi bilan).



**R.B. Balliyeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
a'zosi, tarix fanlari doktori, professor

**H.M. Otegenov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
a'zosi, tarix fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD) dotsent

**B.A. Koshanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix  
fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Hozirgi davrda xalqaro tashkilotlar (BMT, YUNESKO)ning jahon davlatlarining keng miqyosda iqtisodiy integratsiyasi va madaniy aloqalarning yangi asoslarda rivojlanishiga oid dasturlarida turli xalqlarning umumiy manfaatlarini amalga oshirish maqsadida yangi kommunikatsiyalar yoʻnalishlarini loyihalashtirish va oʻzaro iqtisodiy munosabatlarni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois dunyoning turli mintaqalarida sivilizatsiya asoslarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini, xalqaro munosabatlarda oʻzaro hamkorlik yoʻnalishlariga xizmat qilgan aloqa yoʻllari tizimini kompleks tadqiq etish vazifalarining ahamiyati tobora oʻsib bormoqda.

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida Markaziy Osiyoning mintaqaviy va transmintaqaviy iqtisodiy-madaniy aloqalar jarayonlarida hamda Sharq va Gʻarb sivilizatsiyalari oʻrtasidagi madaniy muloqot tarixida tutgan ahamiyatini ochib berish kabi muammolarga oid ilmiy izlanishlar amalga oshirilmogʻda. Markaziy Osiyoning qadimgi aloqa yoʻllari tizimidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarda Orolboʻyi hududining tutgan oʻrnini aniqlashtirish, shuningdek, iqtisodiy muhit va qadimgi savdo yoʻllarini qayta tiklash, ularning tarixiga oid ilmiy maʼlumotlarni qiyoslash, talqin qilish va umumlashtirilgan holda ilmiy doirasiga kiritish dolzarb ahamiyatga egadir.

Yangi Oʻzbekistonda tarix fani sohasi oldiga qoʻyilgan vazifalar qatorida mamlakat tarixini jahon sivilizatsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida oʻrganish, Buyuk ipak yoʻli chorrahasida joylashgan Oʻzbekistonning qadimda va bugungi kunda mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy-madaniy aloqalar tizimida tutgan oʻrni va ahamiyatini yoritish masalasiga davlat siyosati darajasida eʼtibor qaratilmoqda<sup>1</sup>. Bunday yondashuv zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish, tarix fanining yangicha ilmiy-amaliy vazifalarni yechishni talab etmoqda. Shu sababli Orolboʻyida qadimgi aloqa-savdo yoʻllarining shakllanishi va rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojining oʻziga xos jihatlarini oʻrganish, yetarli darajada oʻrganilmagan masalalarni koʻrib chiqish va umumlashtirilgan xulosalar chiqarish, Oʻzbekiston va umuman Markaziy Osiyo tarixini yangi ilmiy-tarixiy bilimlar bilan boyitishga xizmat qilib, bu borada toʻplangan tarixiy bilimlardan Oʻzbekistonda, shu jumladan Qoraqalpogʻiston Respublikasi va Xorazm viloyatida turizm sohalarini rivojlantirish yoʻlida foydalanishga imkon beradi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabrdagi PF-6097-son “Ilm fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni, 2021 yil 9 fevraldagi PF-6165-son “Oʻzbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni, 2018 yil 16 yanvardagi F-5181-son “Moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. “Бир макон, бир йўл” – манфаатларимиз муштарак. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг “Бир макон, бир йўл” халқаро форумда сўзлаган нутқи. Пекин, 14-15 май, 2017 йил // Миллий тараққиёт йўлимизни катъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2019. – Б. 407-411; Арипов Э. Один пояс – один путь: Какие инициативы выдвинул Президент Узбекистана? / <https://strategy.uz/index.php> (Мурожаат қилинган сана 13.03/2023).

muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoyishiva sohaga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishiningustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" dasturining ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.**Orolbo'yi qadimgi yo'llari tarixi manbashunosligi va tarixshunosligi masalalari alohida davrlarga ajratilgan holda (XIX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari) dissertatsiyaning birinchi bobida yoritilgan. Muammoning o'rganilganlik darajasining o'ziga xos xususiyati shundaki, mavzuni ochib berishda arab, fors, turkiy tillarda yaratilgan manbalar va keyingi bosqichlarda Yevropa tillarida yozilgan asarlar muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, biroq faqat XX asrning 30-yillari oxirlarida Xorazm arxeologik ekspeditsiyasining tadqiqotlari boshlanishi natijasida, Orolbo'yida ichki va tranzit aloqa yo'llarning tarixini yozma va arxeologik ma'lumotlarning qiyosiy tahliliga tayangan holda ilmiy jihatdan o'rganish imkoni paydo bo'ldi. Arxeologik ahborot doirasi kengayi borganligi tufayli, qo'lga kiritilgan ilmiy ma'lumotlarning mavzuni o'rganishdagi o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Ular Orolbo'yi qadimgi yo'llari tarixini yangi asoslarda ko'rib chiqishga xizmat qiladi.

Mavzu bo'yicha natijalarni hisobga olgan holda, shuni ta'kidlash joizki, Orolbo'yi qadimgi yo'llarining tarixiga oid maxsus monografiya va umumlashtirilgan ish hozirga qadar mavjud emas. Mazkur mavzu alohida tadqiqot sifatida o'rganilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.**Dissertatsiya ishi Qoraqalpoq davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq va O'zbekiston Milliy universiteti OT-F1-91 "Markaziy Osiyoda tarixiy-madaniy viloyatlarning shakllanishi va etnik geografiyasi muammolari" (2017-2020-yillar) nomli fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi** qadimgi davr va o'rta asrlar Orolbo'yi yo'llarining tarixini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**Mavzuga oid manbashunoslik va tarixshunoslik masalalarini ochib berish;

tosh davri Orolbo'yida antropogen landshaftning shakllanishi va rivojlanish omillari, qadimgi aholining madaniy aloqalari va maxsulot almashishiga xizmat qilgan ilk yo'llari tarixini ko'rib chiqish;

Orolbo'yi havzasida bronza, ilk temir va antik davrda ichki tranzit kommunikatsiya tizimi rivoji bilan bog'liq tarixiy jarayonlarni yoritish;

Quyi Amudaryo havzasi va Orolbo'yi hududlarining qadimgi migratsiya jarayonlarida tutgan o'rni va ahamiyatini ochib berish;

mintaqada o'rta asr savdo yo'llari, karvonsaroylar va boshqa yo'lbo'yi inshootlari bo'yicha ma'lumotlarni tizimlashtirish;

savdo-iqtisodiy aloqalarning Orolbo'yi havzasida urbanizatsiya jarayonlariga ta'sirini yoritish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Orolbo'yi qadimgi yo'llarining tarixi belgilangan.

**Tadqiqotning predmetini** Orolbo'yi tarixiga oid yozma manbalar va arxeologik ma'lumotlari, antropogen landshaftning rivojlanishi va ilk aloqa yo'llarining shakllanishi masalalari, qadimgi davr va o'rta asrlar kommunikatsiya tizimi faoliyati tarixi tashkil etgan.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tizimlashtirish, qiyosiy tahlil, ilmiy ma'lumotlarni umumlashtirish, xronologik yondashuv va xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Orolbo'yida tosh davridan boshlab antropogen landshaftning muhim tarkibiy qismi bo'lgan ilk aloqa yo'llari tarmoqlarining shakllana boshlaganligi, ibtidoiy jamoalarning yangi yerlarni o'zlashtirilishi tabiatdagi oziq-ovqat va xom-ashyo zahiralari mavjud joylarni egallash zarurati bilan belgilanganligi asoslangan;

bronza davrida chorvachilik ho'jaligi, Qizilqumda konchilik va metallurgiya sohasining taraqqiy topishi, xom ashyo va hunarmandchilik mahsulotlari bilan keng ayirboshlash natijasida Orolbo'yidagi yo'llar turli hududlar va qabilalarning iqtisodiy aloqalariga ko'maklashganligi va transmintaqaviy ahamiyat kasb etganligi aniqlangan;

ilk temir davrida Orolbo'yida aloqa yo'llari tarmoqlarining kengayib borishi va savdo-sotiq uchun ixtisoslashuvi, o'troq va ko'chmanchi aholi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning jadallashuvi, dasht yo'llari bo'ylab savdo aloqalarida ko'chmanchi chorvadorlar muhim o'rin tuta boshlaganligi, Xorazm va saklar sivilizatsiyalarining o'zaro ta'siri hamda Orolbo'yida harbiy-siyosiy birlashma vujudga kelishi bilan bog'lik jarayonlar ochib berilgan;

antik davr, ilk va rivojlangan o'rta asrlarda ichki va tashqi tranzit yo'llar bo'ylab tayanch harbiy istehkomlar va maxsus qo'riqlash tizimining tashkil topishi, yo'lbo'yi inshootlari va ulov-transport vositalaridan foydalanishning keng yoyilishi, Amudaryo – O'zboy savdo suv yo'lining faoliyati, urbanizatsiya, hunarmandchilik va savdo-sotiq taraqqiyotida o'troq va ko'chmanchi sivilizatsiyalarning o'zaro ta'siri muhim omil bo'lganligi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Tarixiy va arxeologik ma'lumotlarni tizimlashtirish usuliga tayangan holda yangi ilmiy qarashlar asosida qadimgi davr va o'rta asrlar Orolbo'yi yo'llarining tarixi tahlil qilingan va umumlashtirilgan;

dissertatsiyada ichki va tashqi kommunikatsiyalar tizimi hamda tarixiy-madaniy jarayonlarning rivojlanish masalalariga doir yondashuvlar takomillashtirilib, fanlararo (manbashunoslik, tarix, arxeologiya) tadqiqotlar uslublari qo'llanilgan, ilmiy natijalar asosida maqolalar nashr etilgan, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tarix fanida tan olingan zamonaviy yondashuv va usullarning qo'llanganligi, ilmiy adabiyotlar va arxeologik tadqiqotlar materiallaridan foydalanganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati qadimgi davr tarixini kompleks yoritish, O'zbekiston tarixining muxim yo'nalishlarini boyitish, tarixiy tadqiqot usullari va zamonaviy ilmiy-nazariy qarashlarni takomillashtirish hamda tarix fani soxasini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiyada umumlashtirilgan ma'lumotlardan oliy o'quv yurtlarida tarix, arxeologiya, tarixshunoslik, o'lkashunoslik fanlari bo'yicha maxsus kurslar ishlab chiqishda va o'qitishda, Qoraqalpog'istonning qadimgi davr va o'rta asrlar tarixi bo'yicha yangi avlod darsliklari, o'quv qo'llanmalari yaratishda va tarixiy-madaniy merosni targ'ib qilishda foydalanish mumkin.

#### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

Orolbo'yining qadimgi yo'llari tarixi bo'yicha ichlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

Orolbo'yida tosh davridan boshlab antropogen landshaftning muhim tarkibiy qismi bo'lgan ilk aloqa yo'llari tarmoqlarining shakllana boshlaganligi, ibtidoiy jamoalarning yangi yerlarni o'zlashtirilishi tabiatdagi oziq-ovqat va xom-ashyo zahiralari mavjud joylarni egallash zarurati bilan belgilanganligi, shuningdek bronza davrida chorvachilik ho'jaligi, Qizilqumda konchilik va metallurgiya sohasining taraqqiy topishi, xom ashyo va hunarmandchilik mahsulotlari bilan keng ayirboshlash natijasida Orolbo'yidagi yo'llar turli hududlar va qabilalarning iqtisodiy aloqalariga ko'maklashganligi va transmintaqaviy ahamiyat kasb etganligi asoslangan ma'lumotlardan Qoraqalpog'istonda turizmni rivojlantirish, yangi turistik yo'nalishlarni tashkil etishda foydalanildi (Qaraqalpaqstan Respublikasi Turizm ham madaniy miyras ministriligining 2022 yil 13-iyundagi 02-12/04-1268-sonli ma'lumotnomasi). Bu ma'lumotlar Orolbo'yi arxeologik yodgorliklarini o'rganish, saqlash bo'yicha ishlarni tashkillashtirishda hamda Qoraqalpog'istonda turizm soxasida xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va gidlarning ilmiy bilimlarini kengaytirishga ko'maklashgan;

ilk temir davrida Orolbo'yida aloqa yo'llari tarmoqlarining kengayib borishi va savdo-sotiq uchun ixtisoslashuvi, o'troq va ko'chmanchi aholi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning jadallashuvi, dasht yo'llari bo'ylab savdo aloqalarida ko'chmanchi chorvadorlar muhim o'rin tuta boshlaganligi, Xorazm va saklar sivilizatsiyalarining o'zaro ta'siri hamda Orolbo'yida harbiy-siyosiy birlashma vujudga kelishi bilan bog'lik jarayonlar tarixi aks ma'lumotlardan qoraqalpoq xalqining turmush tarzi, a'naviy xo'jaligi va madaniy merosini o'rganish, saqlash va targ'ib qilishda foydalanilib kelinmoqda (Qaraqalpaqstan Respublikasi Madaniyat ministriligining 2022 yil 14-iyundagi 2-03/803-sonli ma'lumotnomasi). Dissertatsiya ma'lumotlari Qoraqalpog'istonda tarixiy-madaniy merosni o'rganish

va targ'ib etishda, muzeylar faoliyatini va o'lkashunoslikni rivojlantirishda xizmat qilmoqda;

antik davr, ilk va rivojlangan o'rta asrlarda ichki va tashqi tranzit yo'llar bo'ylab tayanch harbiy istehkomlar va maxsus qo'riqlash tizimining tashkil topishi, yo'lbo'yi inshootlari va ulov-transport vositalaridan foydalanishning keng yoyilishi, Amudaryo – O'zboy savdo suv yo'lining faoliyati, urbanizatsiya, hunarmandchilik va savdo-sotiq taraqqiyotida o'troq va ko'chmanchi sivilizatsiyalarning o'zaro ta'siri muhim omil bo'lganligi isbotlangan ma'lumotlardan xalqaro "Oltin meros" xayriya jamoat fondi Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'limi dasturlarini bajarishda foydalanib kelinmoqda (Xalqaro "Oltin meros" xayriya jamoat fondining 2023 yil 14-martdagi 01-22/2-14/03-23-sonli ma'lumotnomasi). Bu ma'lumotlar Orolbo'yi tarixiy yodgorliklarini O'zbekistonning tarixiy-madaniy merosi muhim tarkibiy qismi sifatida o'rganish, saqlash va xalqaro miqyosda targ'ib qilish yuzasidan ma'lum ishlarni tashkillashtirishda hamda Qoraqalpog'istonda turizm sohasini rivojlantirishga ko'maklashadi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro va 5 ta respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha chop etilgan ilmiy ishlar.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ishlar chop etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyasi asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika va 2 ta xorijiy nashrlarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 124 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi, yoritilgan ishning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga joriy qilinishi va aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Mavzu manbashunosligi va tarixshunosligi masalalari"** deb nomlangan birinchi bobi ikkita bo'limdan tashkil topgan. Bobning *"Yozma manbalardagi tarixiy-geografik ma'lumotlar interpretatsiyasi"* deb nomlangan birinchi bo'limida qadimgi davr va o'rta asrlarda turli tillarda yaratilgan manbalardagi mavzuga tegishli ma'lumotlar tahlil qilib chiqildi. Orolbo'yi hududiga tegishli ilk yozma ma'lumotlar "Avesto"da mavjud. Bu manbada

Aryonam Vayjo<sup>2</sup> va Xvayrizam<sup>3</sup> (Xorazm) mamlakatlari tilga olingan, shuningdek, Vorukasha dengizi va unga quyiluvchi Ardvi daryosi Orol dengiziva Amudaryo ekanligi mutaxassislar tomonidan qayd etilgan<sup>4</sup>.

Qadimgi fors bitiklaridagi Xorazm va sak qabilalariga tegishli ma'lumotlar<sup>5</sup> Orolbo'yi havzasining qadimgi davrdan boshlab xalqaro miqyosda tutgan ahamiyatidan dalolat beradi.

Qadimgi yunon manbalarida Amudaryoning quyi oqimi va Orolbo'yining tarixiy geografiyasi, bu hududda yashagan qadimgi xorazmiylar, massagetlar va sak qabilalarining madaniyati va qo'shni qabilalar bilan o'zaro munosabatlariga tegishli ma'lumotlar<sup>6</sup> ham mavzu uchun muhim manbaviy asos bo'ldi.

Qadimgi davr va o'rta asrlarga mansub xitoy manbalarida Amudaryo havzasi, Orolbo'yi hududiga oid tarixiy geografik ma'lumotlar uchraydi. Xususan, "Tanshu"da turk yerlaridan faqat Yuyegan (Urganch) mulkida ho'kiz qo'shilgan aravalar bilan savdo aloqalari olib borilishi to'g'risidagi ma'lumotni<sup>7</sup> ta'kidlab o'tish mumkin

Amudaryoning quyi oqimi va Orolbo'yining mintaqa kommunikatsiya tizimida tutgan o'rni haqidagi Vizantiya manbalari ma'lumotlari ham ishda tahlil qilib chiqildi.

Mavzuni yoritishda IX-XIII asr boshlarida arab, fors va turkiy tillarda yaratilgan tarixiy-geografik manbalar ma'lumotlari muhim o'rin tutdi<sup>8</sup>. Ushbu asarlarda Amudaryoning quyi oqimi va Orolbo'yi hududi orqali o'tgan karvon yo'llari bo'yida joylashgan shaharlar, va qal'alar, karvonsaroylar va rabotlar, quduqlar, quriqchi minoralar hamda ulov vositalar haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Mo'g'ullar hukmronligi<sup>9</sup>, Amir Temur va temuriylar davri<sup>10</sup> hamda so'nggi o'rta asrlardayaratilgan mahalliy tarixiy-geografik asarlarda<sup>11</sup> Orolbo'yi

---

<sup>2</sup> Авесто / Аскар Махкам таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 107; Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. – Тошкент: Университет, 2004. – Б. 37, 43.

<sup>3</sup> Авесто ... – Б. 107; Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. – Ташкент: Университет, 2004. – Б. 37, 43.

<sup>4</sup> Ртвеладзе Э. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. – Ташкент: УМЭД, 2005. – С. 241.

<sup>5</sup> Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. – Ташкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 32 б.

<sup>6</sup> Геродот. История. В девяти книгах / Пер. с греческого и коммент. Г.А. Стратановского. – М.: ОЛМА-ПРЕСС Инвест, 2004. – I. 215, 216, III 117; Страбон. География в семнадцати книгах / Пер. с греч., вступ. статья и комм. Г.А. Стратановского – М.: Олма-Пресс, 2004. – 639 с.

<sup>7</sup> Бичурин Н.Я. (Иокинг). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В трех частях. – Алматы: ТОО "Жалын Баспасы", 1998. Ч. II. – С. 329.

<sup>8</sup> Ибн Хордадбех. Книга путей и стран. (Китаб ал масалик вал-мамалик) / Пер. с арабского, комм., исслед., указ. и карты Н. Валихановой. – Баку: Элм, 1986. – 442 с.; Истахрий. Китаб ал-масалик вал-мамалик (Йўллар ва мамлакатлар китоби). Хуросон ва Мовароуннахр / Араб тилидан таржима, тадқиқот, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Р.Т. Худайбергенов. – Тошкент: Фан, 2019. – 479 б.; Ибн Фадлан. Книга о путешествии на Волгу в 921-922 годах // Звезда Востока. – Ташкент, 1992. – № 9-10. – С. 149-170; Беруний. Абу Райхон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. – Тошкент: Фан, 1968. I том. – 688 б.

<sup>9</sup> Рашид ад-Дин. Джамии' аг-таварих. Сборник летописей / Пер. с персидского А.К. Арандса. – М.- Л.: Изд-во. АН СССР, 1946. Т. 3. – 340 с.; Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та'рих (Польный свод истории) / Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г. Булгакова. Дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С. Камолиддина. – Ташкент: Узбекистан, 2006. – 559 с.; Джамал ал-Карши. Ал-Мулхакат би-с-сурах // Введение, перевод с арабско-персидского, комментарии, текст, факсимиле Ш.Х. Вахидова, Б.Б.Аминова. История Казахстана в персидских источниках. – Алматы: Дайк-Пресс, 2005. Т. I. Ибн Баттута. Саёхатнома (Тухфат ан-нуззар фи ғаройиб ал-амсар ва ажайиб ал-асфар) / Муқаддима, Ибн Баттута ҳаёти ва саёхатлари, унинг «Саёхатнома»сининг ўрганилиш тарихига доир маълумотлар муаллифи

hududidagi karvon yo‘llari yo‘nalishlari, bekatlar, yirik savdo markazlari va yo‘lbo‘yi inshootlari, Amudaryo quyi oqimidagi kechuvlar, ulov-transport vositalari haqida muhim ma‘lumotlar keltiriladi.

XIII–XIV asrlardan boshlab, Yevropa tillarida yozilgan manbalarda<sup>12</sup> Amudaryoning quyi oqimi va Orolbo‘yi orqali o‘tgan mahalliy va tranzit karvon yo‘llari yo‘nalishlariga tegishli ma‘lumotlar ko‘payib bordi. XVI-XIX asrlarga oid Yevropa manbalari ichida A. Jenkinson (XVI asr)<sup>13</sup>, F.Yefremov (XVIII asr)<sup>14</sup>, 1863 yilda Xiva xonligida bo‘lgan sayohatchi A. Vamberi<sup>15</sup> asarlarini, shuningdek, 1714-1717 yillarda Rus hukumati tomonidan Aleksandr Bekovich Cherkasskiy boshchiligida Xiva xonligiga uyushtirilgan harbiy ekspeditsiya davrida to‘plangan ma‘lumotlarni<sup>16</sup> muhim manbalar sifatida qayd qilish mumkin. Tadqiqotda bu manbalardagi Quyi Volgabo‘yidan Ustyurt orqali Orolbo‘yiga, Kaspiy dengizidan Xorazm vohasiga o‘tgan karvon yo‘llariga oid ma‘lumotlar tahlil qilib chiqildi.

Mavzu manbashunosligini qadimda va o‘rta asrlarda yaratilgan tarixiy xaritalar ma‘lumotlari ham ancha boyitadi. Amudaryo va Orol dengizi aks etgan xaritalar ichida Klavdiy Ptolemeyning “Geografiya” asariga ilova qilingan xarita<sup>17</sup> va o‘rta asrlarda yaratilgan xaritalarni<sup>18</sup> qayd etish mumkin.

Ushbu bobning ikkinchi bo‘limi “*Xorazm vohasidagi qadimgi davr va o‘rta asrlar yo‘llari haqida tarixiy-arxeologik ma‘lumotlar tahlili*”ga bag‘ishlangan. Tadqiqotda mavzuning o‘rganilishi 4 ta xronologik davrlarga bo‘lib ko‘rib chiqildi. 1. XIX asrning 50-60-yillaridayoq, rus qo‘shinlari Orolbo‘yi hududida mustahkam harbiy inshootlar barpo qilib o‘rnashgan davrlardan boshlab Ustyurtdan o‘tgan

---

va asarning Ўрта Осиёга саёҳат кисмининг араб тилидан таржимони Н. Ибраҳимов. – Тошкент: Шарқ баёзи, 1993. – 104 б.

<sup>10</sup> Низомиддин Шомий. Зафарнома / Форс тилидан ўгирувчи Ю. Ҳакимжонов. Ҳофиз Абрунинг Зафарнома”га ёзган илова (Зайл)сини ва изоҳларни форс тилидан О. Бўриев таржима қилган. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 528 б.; Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома / Муҳаммад Али ибн Дарвиш Али ал-Бухорий таржимаси. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари А.Аҳмад ва Ҳ.Бобобеков. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 384б.

<sup>11</sup> Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдуллонома. «Шарафномаи шоҳий» / Форс тилидан С. Мирзаев таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 1999. 1-китоб. – 416 б.; Абулғозий. Шажарайи турк. – Тошкент: Чўлпон, 1992. – 192 б.

<sup>12</sup> Путешествия Платона Карпини и Вильгельма Рубрика. – М.: Географиздат, 1957. – 197 с.; Марко Поло. Книга о разнообразии мира / Перевод И.Минаева. – М.: ЭКСМО, 2005. – 480 с.

<sup>13</sup> Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию. 1558-1560 гг. /Перевод с английского Ю.В. Готье // Английские путешественники в Московском государстве в XVI в.–Л.: Полиграфкнига, 1937. – С. 167-192.

<sup>14</sup> Ефремов Ф.С. Странствование Филиппа Ефремова Въ Киргизской степи, Бухарии, Хиве, Персии, Тибете и Индии и возвращение его оттуда через Англию въ Россию. Третье вновь переделанное, исправленное и умноженное издание. –Казан: Въ Университетской Типографии, 1811. – 160 с.

<sup>15</sup> Вамбери А. Путешествие по Средней Азии изъ Тегерана черезъ Туркменскую пустыню по восточному берегу Каспійского моря въ Хиву, Бухару и Самаркандъ, предпринятое въ 1863 году съ научною целью, по поручению Венгерской Академіи въ Пешть, членомъ ея А. Вамбери. – М., 1867. – 369 с.

<sup>16</sup> Гулямов Х.Г. Дипломатические отношения государств Средней Азии с Россией в XVIII – первой половине XIX в. – Ташкент: Фан, 2005. – С. 55-58.

<sup>17</sup> Ptolemaeus. Geographii. E codicibus recognovit Mülleris. – Paris, 1883. Vol. 1-2.

<sup>18</sup> Книга большому чертежу или древняя карта Россіскаго государства, поновленная въ розрядъ и списанная въ книгу 1627 году. Изданиевторое. – СанктПетербургъ: въ типографіи ИМПЕРАТОРСКОЙ Россійской Академіи, 1838. – 261 с.; [//\\_Мурожаат\\_килинган\\_сана\\_14.06.22](https://ru.wikipedia.org/wiki/Большой_чертеж); Камолиддин Ш. С. Географическая карта Средней Азии Василио Вататзи (1730) // Moziydan sado (Echo of History, Эхо истории), 2005, 3 (27). – С. 36-41.

karvon yo'llari va savdo karvonlari tushadigan qulay joylarni aniqlash bo'yicha izlanishlar olib borilganligini<sup>19</sup> qayd etish mumkin.

2. XX asrda Orolbo'yining karvon yo'llari yo'nalishlari va tegishli infratuzilmalari tarixini o'rganishda hududda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. XX asrning 30 yillari oxiri – 40 yillarida S.P. Tolstov boshchiligida o'z faoliyatini boshlagan Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan Xorazm vohasi va Janubiy Orolbo'yida, Ustyurtda arxeologik tadqiqotlar olib borilib, Quyi Amudaryo va Janubiy Orolbo'yida neolit davrida shakllangan Kaltaminor madaniyatiga oid yodgorliklar o'rganib chiqildi, qadimgi aholining turmush tarzi, xo'jaligi va ilk aloqa yo'llari yo'nalishlari bilan bog'liq muhim ma'lumotlar qo'lga kiritildi<sup>20</sup>. S.P. Tolstov 1946-1947 yillarda Ustyurt karvon yo'lida joylashgan Uchquduq, Bo'loq, Qo'shbuloq, Belavli kabi karvonsaroylarni o'rganish natijasida o'rta asrlar Xorazmdan Volga bo'yiga olib boradigan "Katta shoh yo'li" haqida masalani ilgari surgan<sup>21</sup>. 1950-1954 yillarda Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi tadqiqotlari natijasida o'rta asrlarda O'zboy oqimi bo'ylab Janubiy Orolbo'yidan Xurosonga o'tgan karvon yo'li va Devqala, Ortaquyu, Talayxonota va Oqyayla karvonsaroylari aniqlandi<sup>22</sup>.

O'tgan asrning 50 yillarida M.E. Masson rahbarligida o'rta asrlarda Marvdan Xorazmga o'tgan savdo yo'llari o'rganib chiqilgan<sup>23</sup>.

Bu davrda Xorazm vohasi va Orolbo'yining qadim tarixini, xususan karvon yo'llari va infratuzilmalari faoliyatini yoritishga katta hissa bo'lib qo'shilgan ilmiy tadqiqotlar ichida V.N. Yagodin<sup>24</sup>, M.A. Itina<sup>25</sup>, M.Mambetullayev<sup>26</sup>, M.SH. Qdirniyazov<sup>27</sup> va boshqalarning ilmiy asarlarini ta'kidlab o'tish kerak.

Orolbo'yi va Ustyurt hududi orqali o'tgan karvon yo'llari, o'rta asrlar davriga mansub rabotlar, karvonsaroylar tarixining ayrim jihatlarini yoritishga O.A. Vishnevskaya, V.A. Loxovits, Y.P. Manilov va N. Yusupovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar katta hissa bo'lib qo'shildi<sup>28</sup>.

---

<sup>19</sup> Материалы для географии и статистики России, собранные офицерами Генерального штаба. Киргизская степь / Оренбургский Ведомосты. Т. 99. –СПб, 1865. Составил А. Майер. – С. 56.

<sup>20</sup> Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. – М.: МГУ, 1948. – 352 с.; O'sha muallif. По следам древнехорезмской цивилизации. – М.,-Л.: АН СССР, 1948. – 328 с.;1959; O'sha muallif. Древний Хорезм // По следам древних культур. – М.: Б.и., 1951. – С. 169-208.

<sup>21</sup> Толстов С.П. Кадимги Хоразм маданиятини излаб. – Тошкент: Фан, 1964. – Б. 279-281, 82-84-расмлар.

<sup>22</sup> Низовья Аму-дарьи, Сарыкамыш, Узбой. История формирования и заселения // МХЭ. Вып. 3. – М.: Изд-во АН СССР, 1960. – С. 325-340.

<sup>23</sup> Массон М.Е. Средневековый торговый путь из Мерва в Хорезм и в Мавераннахр (в пределах Туркменской ССР) //Труды ЮТАКЭ. Т. XIII. – Ашхабад, 1966. – С. 181-254.

<sup>24</sup> Ягодин В.Н. Маршрутные археологические исследования в левобережной части Приаральской дельты Амударьи // МХЭ. Вып 7. М.: Наука, 1968. – С. 73-96.

<sup>25</sup> Итина М.А. История степных племён Южного Приаралья (II-начала I тысячелетия до н.э.) // ТХАЭЭ. – М.: Наука, 1977. Т. X. – 240 с; O'sha muallif. Археологические памятники на древних торговых путях вдоль берегов Амударьи // Древности Южного Хорезма. ТХАЭ. – М., 1991. – Т. XVI. – С.11-36.

<sup>26</sup> Мамбетуллаев М.М. Социально-экономические и политические факторы возникновения и развития городов Хорезма эпохи античности // ИМКУ. Вып. 33. – Ташкент, 2002. – С. 126-131; O'sha muallif. Хорезм и Великий шелковый путь // Великий шелковый путь. Культура и традиции. Прошлое и настоящее: Материалы международной научно-теоритической конференции. – Ташкент, 2006. – С. 23-26..

<sup>27</sup> Кдырнязов М.Ш. Культурные связи средневековых городов Хорезма //Археология Приаралья. –Ташкент: Фан, 1984. Вып. II. – С.93-95.

<sup>28</sup> Вишневская О.А. Раскопки караван-сараев Ак-яйла и Талайхан-ата // Археологические и этнографические работы Хорезмской экспедиции 1949-1953 гг. // Труды ХАЭЭ. – М.: АН СССР, 1958. Т. II. – С. 296-316;

V.V. Bartold tomonidan o'rtta asrlar davriga oid arab, fors va turkiy tilli manbalar ma'lumotlari tahlili asosida yozilib, XX asrda nashr etilgan asarlarda Orolbo'yi tarixiga oid ma'lumotlar ham o'rin olgan<sup>29</sup>.

Shu tariqa, XX asrning 30-80 yillarida olib borilgan tadqiqotlarda Orolbo'yi havzasining mintaqaviy va transmintaqaviy aloqalarda, aholi migratsiyasi jarayonlarida tutgan o'rin masalalari bo'yicha muhim ma'lumotlar qo'lga kiritildi.

3. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida amalga oshirilgan tadqiqotlar ham mavzu tarixshunosligini boyitishga katta hissa bo'lib qo'shildi. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'istontaniqli olimlaridan V.N.Yagodin, M.M. Mambetullayev, M.SH. Kdirniyazov va R. Bauyetdinov tomonidan Orolbo'yi mintaqasining qadimgi davr va o'rtta asrlarda karvon yo'llari, shaharlar va qal'alari, rabotlar va karvonsaroylar tarixi bilan bog'liq qator ilmiy ishlari nashr etildi<sup>30</sup>. Shuningdek, G'. Xojaniyazov va J.Xakimniyazovning Orolbo'yining o'rtta asrlarga mansub karvon yo'llari va ular faoliyatida muhim o'rin tutgan signal beruvchi minoralar tarixiga bog'liq ma'lumotlar aks etgan tadqiqotlari<sup>31</sup> katta ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekiston-Polsha (K. Shimchak, M. Xo'janazarov)<sup>32</sup>, O'zbekiston va Fransiya (F. Brunet)<sup>33</sup> xalqaro arxeologik ekspeditsiya xodimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar Amudaryoning quyi oqimidan neolit davri aholisining ichki Qizilqumga migratsiyasi jarayonlari bo'yicha muhim ilmiy xulosalarga olib keldi.

---

Лоховиц В.А. Караван-сарай Верхнего Хорезма // Этнография и археология Средней Азии. – М.: Наука, 1970. – С. 112-118; Маньолов Ю.П. Археологические исследования караван-сараяв Центрального Устюрта // Археология Приаралья. – Ташкент, 1982. – Вып.1; Маньолов Ю.П., Юсупов Н. Караван-сарай Центрального УстюртаXIV в. // СА. – М., 1982. – № 2. С. 173-185.

<sup>29</sup> Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия / Соч. в 9 томах. – М.: Изд-во вост. лит, 1963.Т. I. – С. 45-584; O'sha muallif. История культурной жизни Туркестана / Соч. в 9 томах. – М.: Изд-во вост. лит, 1963.Т.II. – С.167-433. O'sha muallif. Сведения об Аральском море и низовьях Аму-дарьи с древнейших времен до XVI века /Соч. в 9 томах. – М.:Наука, 1965. Т. III. – С. 13-94; O'sha muallif. К истории орошения Туркестана / Соч. в 9 томах. – М.:Наука, 1965. Т. III. –С. 95-231. O'sha muallif. Работы по исторической географии. / Соч. в 9 томах. – М.: Наука, 1965. Т.III. – 714 с.

<sup>30</sup> Ягодин В.Н. Древние кочевники Арало-Каспия на Великом шелковом пути // Вестник Каракалпакского отделения АН РУз. – Нукус, 1994. – № 2. – С. 99-106; O'sha muallif. Памятники истории и культуры в концепции устойчивого развития (Использование культурного наследия народов Южного Приаралья для развития туризма) // Вестник Каракалпакского отделения Академии наук Республики Узбекистан. № 1 (202). 2006. – С. 38-42; Мамбетуллаев М.М., Социально-экономические и политические факторы возникновения и развития городов Хорезма эпохи античности. // ИМКУ, Вып. 33. – Ташкент, 2002. – С. 126-131; Кдырниязов М.-Ш. Великий шелковый путь и средневековые города Хорезма // Археология и история Центральной Азии. – Самарканд, 2004. – С. 83-86; Кдырниязов М.-Ш., Бауетдинов Р. Торговые связи средневекового Миздахкана // АП. Вып. VI. – Нукус, 2003. – С. 80-86; Кдырниязов М.-Ш., Ягодин В.Н., Мамбетуллаев М.М., Сагдуллаев А.С., Кдырниязов О.-Ш. История цивилизации Хорезма. – Нукус: Qaraqalpaqistan, 2017. – 286 с.

<sup>31</sup> Хожаниязов Г., Хакимниязов Ж. Караванные пути северной периферии Хорезма. Новые исследования. // Вестник Каракалпакского Государственного университета им. Бердаха. – Нукус, 2008. № 1. – С. 104-107; Хакимниязов Ж., Хожаниязов Ф. Археологический комплекс Кухана // Вестник Каракалпакского Государственного университета им. Бердаха. – Нукус, 2011. № 3-4. – С. 58-60.

<sup>32</sup> Brunet F., Khudzhazarov M.,Hoshimov H.B. Nouvellesdoonneessurlachronologie de la culture de Kel'teminar (VII-IV millenaires) en Ouzbekistan. The history of material culture of Uzbekistan. 38 Edition. – Samarkand, 2012. – P. 118-125.

<sup>33</sup> Szumchak K., Khudzhazarov M. Exploring the neolitik of the Kyzyl-kums Ajakagytm «the site» end other collection. – Warshava university, 2006.

Mavzu tarixshunosligini boyitishga xizmat qilgan ma'lumotlar M.Mambetullayev<sup>34</sup>, O'. Mavlanov<sup>35</sup>, Y.A. Karimov<sup>36</sup>, R.B. Anyazov<sup>37</sup> va boshqa tadqiqotchilarning dissertatsiya ishlarida ham qisman ko'rib o'tilgan.

4. Xorijiy mamlakatlarda ham Orolbo'yi hududining tarixi va madaniyatini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Lekin bu yo'nalishdagi ishlar kam sonli bo'lib, ularda ushbu masalaning faqatgina umumiy jihatlari yoritilgan xolos.

Shu tariqa, turli davrlarda yaratilgan ko'p sonli manbalarda hamda XIX asr oxiri - XXI asr boshlarida olib borilgan tarixiy-arxeologik tadqiqotlarda Amudaryoning quyi oqimi va Orolbo'yining tarixiy geografiyasi va aloqa yo'llari yo'nalishlariga tegishli muhim ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kommunikatsiya shakllanishi va rivojlanishining ilk bosqichlari”** deb nomlangan ikkinchi bobi uchta bo'limdan tashkil topgan. Uning birinchi bo'limida *“Paleolit va mezolit davrida Orolbo'yining o'zlashtirilishi va ichki yo'llar shakllanishi omillari”* masalasi ko'rib o'tilgan. Orolbo'yi hududlarida aloqa yo'llari shakllanishining ilk bosqichlarini aniqlashda arxeologik ma'lumotlarning ahamiyati beqiyosdir<sup>38</sup>. Ustyurt platosining janubi-sharqida hamda quyi Amudaryoning so'l va o'ng sohillaridan so'nggi paleolit davriga oid bir qator yodgorliklar topilgani<sup>39</sup> bu hududning tosh davridan o'zlashtirilib boshlanganligi ko'rsatmoqda. Lekin, paleolit va mezolit davrlarda Ustyurt hududlari va Sulton Uvays tog'larining tevaragi doimiy ravishda yashash maqsadida o'zlashtirilmagan. Ushbu hududlarda Sharqiy Kaspiybo'yi, Mang'ishloq va qo'yi Ural daryosi havzasidan kirib kelgan ovchilar guruhlarini, ov maqsadida mavsumiy ko'chib yurishgan deb faraz qilinadi, negaki bu hududlarda uzoq muddatli foydalanilgan makonlar topilmagan<sup>40</sup>.

Orolbo'yi hududi so'nggi paleolit davridan boshlab, xo'jalik ehtiyojlarni qondirishi uchun foydalanilgan dastlabki so'qmoqlarning tarmoqlari vujudga kelgan. Bu aloqa yo'llari, butun mintaqada bo'lganidek, dastlab ibtidoiy jamoalar makonlarini oziq-ovqat va xom ashyo manbalari mavjud hududlar bilan bog'lashda ahamiyatga ega bo'lib, keyingi bosqichlarda ovchilar jamoalarining bir hududdan ikkinchisiga ko'chish va yashash joylarini hududiy jihatdan kengaytirishga, o'simlik

<sup>34</sup> Мамбетуллаев М. История и культура Хорезма античной эпохи (города и поселения в IV в. до н.э. – IV в. н.э.): Автореф. дисс. ... докт. ист. наук. – Ташкент: ИИ АН РУз, 1994. – 57 с.

<sup>35</sup> Мавланов У.М. Коммуникации и торговые пути в Средней Азии: формирование и этапы развития: Автореф. дисс. ... докт. ист. наук. – Ташкент: ИИ АН РУз, 2009. – 46 с.

<sup>36</sup> Каримов Я.А. Марказий Осиё коммуникация тизимида сув йўлларининг тутган ўрни (қадимги давр ва ўрта асрларда Амударё ва Сирдарё мисолида): Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. – Нукус: ҚДУ, 2021. - 54 б.

<sup>37</sup> Анязов Р.Б. Марказий Осиё карвон йўллари инфратузилмалари ва хизмат кўрсатиш соҳалари (IX-XIX асрлар Хоразм воҳаси мисолида): Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. – Нукус: ҚДУ, 2022. - 60 б.

<sup>38</sup> Маткаримов Х.О. Хоразм воҳасида археологик тадқиқотлар тарихи (қадимги даврга оид тарихий реконструкция муаммолари): Тарих фан. фалсафа докт. (PhD) дисс. ...автореф – Нукус: Қорақалпоқ давлат университети, 2021. – Б. 15-16.

<sup>39</sup> Бижанов Е.Б. Памятники каменного века впадины Шахпахты //Археология Приаралья. – Ташкент: Фан. 1984. Вып. 4. – С. 8-20; Виноградова Е.А. Первые палеолитические находки в Султануиздаче // Приаралье в древности и средневековье. М.: Наука, 1998. – С. 74-77.

<sup>40</sup> Авизова А.К. Трасологический анализ орудий труда стоянок юго-восточного Устюрта //Археология Приаралья. Вып. VI. – Нукус, 2003. – С. 17-20.

va xayvonot dunyosiga boy, xom ashyo konlari mavjud yangi yerlarni egallab olish hamda mahsulot ayirboshlashga xizmat qilgan tranzit yo‘llarga aylanib borgan.

Mezolit davrida Ustyurt sarhadlari keng o‘zlashtirila boshlanganidan shu davrga oid Jayronquduq, Aydabol va Oqtoyloq kabi yodgorliklar guruhlari darak beradi<sup>41</sup>. Paleolit, mezolit va neolit davrlarda ushbu hududlar suv manbalari bilan yetarlicha ta‘minlangan bo‘lib, ko‘llar sohillari tevaragida mavjud o‘simliklar va hayvonot dunyosi ovchilik va terimchilik sohalarining rivoj topishiga zamin yaratgan.

Sharqiy Kaspiybo‘yi va Janubiy Orolbo‘yi tosh davri arxeologik yodgorliklarning geografiyasi va kartografiyasi ma‘lumotlariga ko‘ra, Kaspiybo‘yi va Orolbo‘yi oralig‘idagi dastlabki xo‘jalik aloqa so‘qmoqlari kamida so‘nggi paleolit-mezolit davrlarida vujudga kelgan<sup>42</sup>. Bundan Kaspiybo‘yidagi Yangaja, Jebel makonlari, Janubiy Orolbo‘yida Esen, Sulton Uvays hamda Yuqori O‘zboy kabi yodgorliklarning hududiy joylashishi xususiyatlari darak beradi<sup>43</sup>.

Arxeologik ma‘lumotlar tahlili<sup>44</sup> hamda yodgorliklarning kartografiyasiga<sup>45</sup> asoslanib, tadqiqotda Janubiy Orolbo‘yi va Ustyurt orqali o‘tgan ilk aloqa yo‘llarining quyidagi yo‘nalishlarini keltirib o‘tilgan:

1. Janubiy Orolbo‘yida so‘nggi paleolit davriga oid Sulton Uvays va Ko‘kcha makonlari orqali Ustyurtdagi Esen va Qoraquduq kabi makonlari tomoniga o‘tgan aloqa yo‘llari. Ular Orolbo‘yi hududlarini Markaziy Qizilqum va quyi Zarafshon havzasi bilan bog‘lagan.

2. Janubiy Orolbo‘yi – Yuqori O‘zboy – Sharqiy Kaspiy. Br yo‘nalishi so‘nggi paleolit va mezolit davrlaridan boshlab faoliyat ko‘rsata boshlagan. Mezolit davrida Sariqmish atroflarida ko‘p sonli makonlar paydo bo‘lgan. Shu davrda Amudaryo Kaspiy dengiziga qo‘yilgan.

3. Janubiy Orolbo‘yi – Ustyurt – Mang‘ishloq hamda Janubiy Ural yo‘nalishi.

Ikkinchi bobning ikkinchi bo‘limi Orolbo‘yida *“Neolit davrida madaniy aloqalar va mahsulot almashish yo‘llari”* deb nomlangan. Bu davr Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimlarida, Qizilqum va Zarafshon daryosining quyi qismida Kaltaminor madaniyatiga mansub makonlar keng tarqalganligi bilan xarakterlanadi. Bu davrda O‘rta Osiyoning keng dasht va cho‘llari tekisliklari, xususan Orolbo‘yi hududlari neolit davri ovchilari va baliqchilari tomonidan o‘zlashtirilgan<sup>46</sup>. Ustyurt platosida mezolit va neolit davrlariga oid 200 dan ortiq

<sup>41</sup> Бижанов Е.Б. Мезолитические и неолитические памятники северо-западного Устьурта // Археология Приаралья. Вып. 1. – Ташкент: Фан, 1982. – С. 14-37.

<sup>42</sup> Сагдуллаев А.С., Холматов Н.Ў., Абдуллаев Ў.И. ва бошқ. Марказий Осиёда тарихий-маданий вилоятларнинг шаклланиши ва этник географияси муаммолари. – Тошкент: Университет, 2020. – Илова, хариталар.

<sup>43</sup> Окладников А.П. Верхнепалеолитическое и мезолитическое время // Средней Азия в эпоху камня и бронзы. – М.-Л.: Наука, 1966. – С. 59-66.

<sup>44</sup> Сайфуллаев Б.К., Хужаназаров М.М., Джуракулова М.Д. Новые данные по палеолиту Кызылкумов // История и археология Турана. №3. – Самарканд, 2017. – С. 31-37.

<sup>45</sup> Сагдуллаев А.С., Холматов Н.Ў., Абдуллаев Ў. И. ва бошқ. Марказий Осиёда тарихий-маданий вилоятларнинг шаклланиши ... – Б. 13

<sup>46</sup> Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. – М.: МГУ, 1948. – С. 59-66; Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского Междуречья // ТР. ХАЭЭ. Т. XIII. –

makon va manzilgohlar (Qoraquduq, Aydabol, Churuk, Oqtayloq va b.) topilgan. Lekin qadimgi uy-joylar va doimiy, uzoq vaqt foydalanilgan makonlar bu hududdan topilmagan<sup>47</sup>. Bu ovchi qabilalar Ustyurtga qo'shni hududlardan kirib kelganligidan dalolat beradi.

Arxeologik yodgorliklar geografiyasi va kartografiyasi ushbu mintaqaning turli hududlarini bog'lagan barqaror aloqa yo'llari bo'lganligidan dalolat beradi. Arxeologik ma'lumotlarga tayanib qadimgi yo'llar yo'nalishlari rivojiga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillarni ko'rsatish mumkin. Bu mavsumiy ko'chib yuruvchi yovvoyi hayvonlar (qulan, sayg'oq, jayron, kiyik, yovvoyi buqa)ni ov qilish, shuningdek, mehnat qurollari va taqinchoqlar uchun xom-ashyo bo'lgan chaqmoqtosh, kvarsit, oniks, feruza toshlarni qazib olish zarurati edi. Neolit davri baliqchilari va ovchilar guruhlari o'rtasida xo'jalik va ayirboshlash munosabatlari muntazam ravishda rivojlanib kelgan<sup>48</sup>. Mahsulot almashishga bo'lgan ehtiyoj jamoalar o'rtasida aloqalar va o'zaro xo'jalik-madaniy ta'sir paydo bo'lishida muhim o'rin tutgan. Arxeologik topilmalar xususiyati xom-ashyo, taqinchoqlar va mehnat qurollari bilan almashish bo'lganligini qayd etishga imkon beradi<sup>49</sup>. Bu jarayonlar Orolbo'yi hududida aloqa yo'llarining tarmoqlari kengayib borishiga xizmat qilgan. Mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan bu aloqa yo'llari tarmoqlari nisbatan keng hududda – Zarafshon va Amudaryoning quyi oqimlarida, Qizilqum va G'arbiy Qozog'iston hududida tarqalgan Kaltaminor madaniyatiga mansub makonlarni o'zaro bog'lab turgan yo'llar tizimida muhim o'rin tutgan. Ularning moddiy madaniyati yagona asosga, yagona xo'jalik va turmush tarziga, yagona etnik birlikka ega ovchi va baliqchi qabilalarning madaniyatidir<sup>50</sup>. Bu madaniyatga mansub qabilalar xo'jaligida ovchilik, baliqchilik va termachilik asosiy o'rin tutgan bo'lsada, ular dehqonchilik tajribalaridan ham qisman xabardor bo'lgan<sup>51</sup>. Bu ham o'zaro aloqalar imkoniyatini kengaytiruvchi omillardan bo'lib, Orolbo'yida ham mahalliy ahamiyatga ega aloqa yo'llarining tarmoqlari kengayishiga olib kelgan.

Orolbo'yi orqali o'tgan tranzit aloqa yo'llari ichida neolit davridan boshlab Janubiy Orolbo'yi – Ustyurt – Mang'ishloq hamda Janubiy Ural yo'nalishi muhim o'rin tutgan. Neolit davridan boshlab, qo'yi Zarafshon havzasi, Markaziy Qizilqum, Ustyurt, quyi Volga va Ural daryosining oralig'i, Uralorti va shimoliy-g'arbiy Qozog'iston kabi keng hududiy miqyosida Kaltaminor madaniyatiga oid chaqmoqtoshdan ishlangan bir hil kamon o'qi paykonlari tarqalgan<sup>52</sup>. Mazkur holat

---

М, 1981. –С. 64-116; Холматов Н.У. Мезолит и неолит нижнего Зарафшана. – Ташкент: Фан, 2007. – С. 44, 134-138.

<sup>47</sup> Бижанов Е.Б. Мезолитические и неолитические памятники северо-западного Устьурта. Археология. Приаралья. Вып. 1. – Ташкент, 1982. – С. 14-37.

<sup>48</sup> Толстов С.П. Древний Хорезм. ... – С. 59-66; Итина М.А. Памятники первобытной культуры Узбоя // Тр. ХАЭ. Т. II. – М., 1955. – С. 66-68.

<sup>49</sup> Массон В.М. Экономика и социальный строй древних обществ. – Л.: Наука, 1976. – С. 74.

<sup>50</sup> Толстов С.П. Древний Хорезм. ... – С. 59-66; О'sha muallif. Древний Хорезм // По следам древних культур. – М., 1951. – С.169-208.

<sup>51</sup> Гулямов Я.Г., Исламов У., Аскарлов А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зарафшана. – Ташкент: Фан, 1966. – С.90, 96.

<sup>52</sup> Виноградов А.В. О распространении наконечников стрел Кельтеминарского типа // Этнография и археология Средней Азии. – М.: Наука, 1979. – С. 3-9

neolit davrida Orolbo‘yi hududi orqali o‘tgan tranzit aloqa yo‘llari faoliyatidan dalolat.

Ikkinchi bobning uchinchi bo‘limida Orolbo‘yida “*Bronza, ilk temir va antik davrlarda kommunikatsiya tizimi*” tarixi ochib berilgan. Bronza va ilk temir davrida Markaziy Osiyoning shimoliy va janubiy viloyatlarni bog‘lagan aloqa yo‘llari yo‘nalishlari Amudaryoning chap qirg‘og‘i yoqalab Marg‘iyona va Baqtriyaga o‘tgan. Marvdan Xorazmga o‘tgan savdo yo‘li yo‘nalishini arxeologik-topografik jihatdan o‘rgangan M.Y. Masson o‘rta asrlarda ham foydalanilgan karvon yo‘li bo‘ylab sahro ichkarisiga 70 km. gacha bo‘lgan hududda bronza va ilk temir davriga tegishli o‘nlab yodgorliklarni topishga muvaffaq bo‘lgan<sup>53</sup>. Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlardan kelib chiqib, bronza davrida Orolbo‘yi orqali Yevrosiyo dashtlarini Markaziy Osiyoning janubiy hududlari hamda Eron, Afg‘oniston va Hind vodiysi bilan o‘zaro bog‘lab turuvchi tranzit aloqa yo‘llari kesib o‘tganligi haqida xulosaga kelish mumkin. Bu yo‘llar nafaqat tranzit, shu bilan birga mahalliy aloqalarda ham katta hamiyatga ega bo‘lib, yuk tashish, mahsulot almashish va iqtisodiy munosabatlarda foydalanilgan. Bundan tashqari tabiiy boyliklarni qazib olish va ustaxonalarga, iste‘molchilarga yetkazishga xizmat qilgan yo‘llar mavjudligi ham e‘tiborni tortadi<sup>54</sup>.

Arxeologik ma‘lumotlar tahliliga asoslanib, bronza va ilk temir davri aloqa yo‘llari yo‘nalishlari bir-biriga mos kelganligi haqida xulosaga kelish mumkin. Bu haqda Orolbo‘yidagi arxeologik yodgorliklarning geografik joylashuvi ham dalolat beradi. Ilk temir davrida Orolbo‘yidagi qadimgi yo‘llar nafaqat iqtisodiy aloqalarga, madaniy hayotdagi yangiliklar tarqalishiga xizmat qilgan. Ahamoniylar istilosi va Makedoniyalik Aleksandrning harbiy yurishlari Markaziy Osiyoda qadimgi yo‘llarning harbiy strategik ahamiyatini nihoyatda oshirib, aloqa yo‘llaridan istilochilik yurishlari olib borishda ham izchil foydalanila boshlandi.

Antik davrda Buyuk ipak yo‘lining Yettisuv va Xorazm vohasi orqali Sharqiy Yevropaga qarab ketgan Shimoliy yo‘nalishlarining mintaqaviy va transmintaqaviy aloqalarda tutgan ahamiyati kengaydi.

Xorazm vohasidagi antik davrga oid makonlardan topilgan ko‘plab arxeologik ashyolar – sopol dan yasalgan fil va maymun (Gaurqal’a) kabi hayvonlarning sopol haykalchalari, Tuproqqal’a saroyidagi «jangchilar zali» devoridagi tasvirlar, taqinchoqlar (munchoq) va boshqalar Xorazm vohasining Hindiston bilan aloqalaridan dalolat beradi<sup>55</sup>. Bu aloqalar rivojida Baqtriya hududi va Amudaryo suv yo‘li asosiy tranzit aloqa yo‘li sifatida katta o‘rin tutgan. Shimoli-g‘arbiy Hindiston va Gang daryosi sohilidagi hunarmandchilik markazlarida tayyorlangan munchoqlarning Eron hududidan (Gilon viloyati), quyi Volga bo‘yidagi qo‘rg‘onlaridan topilishi Hindiston va Erondan Orolbo‘yi orqali Yevrosiyo dashtlariga qarab ketgan aloqa yo‘li yo‘nalishlaridan va bu aloqalarda Xorazm

<sup>53</sup> Массон М.Е. Средневековые торговые пути из Мерва в Хорезм и Мавераннахр ... – С. 67-74.

<sup>54</sup> Мавлонов Ў.М. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш босқичлари. – Тошкент: Академия, 2008. – Б. 16-17, 34-35, 43, 50-55.

<sup>55</sup> Рапопорт Ю.А., Трудновская С.А. Городище Гяур-кала // ТХАЭЭ. – М., 1958. Т. II. – С. 363-364; Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования ... – С. 199.

